

## O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA FARZAND OBRAZINING RAMZ VA TIMSOL SIFATIDAGI IFODASI

**Najmiddinova Dilnura**

*BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollarida farzand obrazining ramziy va timsoliy ifodasi tahlil qilinadi. Unda farzandning milliy ongdagi o‘rni, uning qadriyat sifatidagi talqini hamda ma’naviy-estetik funksiyasi yoritiladi. Maqollar asosida farzand obrazi orqali xalqning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ochib beriladi. Bu esa o‘zbek paremiologiyasida obraz va ramz masalalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** farzand obrazi, ota-ona, xalq maqollari, ramz, timsol, paremiologiya, milliy qadriyat.

**Аннотация.** В данной статье анализируется символическое и образное выражение образа ребенка в узбекских народных пословицах. Освещается место ребенка в национальном сознании, его интерпретация как ценности, а также духовно-эстетическая функция. На основе пословиц раскрываются социально-философские взгляды народа через образ ребенка. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию вопросов символа и образа в узбекской паремиологии.

**Ключевые слова:** образ ребенка, народные пословицы, символ, образ, паремиология, национальные ценности.

**Abstract.** This article analyzes the symbolic and figurative representation of the child image in Uzbek folk proverbs. It explores the role of the child in national consciousness, its interpretation as a value, and its spiritual and aesthetic functions. Based on proverbs, the socio-philosophical views of the people are revealed through the image of the child. The results contribute to a deeper understanding of symbol and imagery in Uzbek paremiology.

**Keywords:** child image, parents, folk proverbs, symbol, imagery, paremiology, national values.

Qadimdan o‘zbek xalqining qalbida farzandga muhabbat tuyg‘usi shakllanib kelgan. Eng ulug‘ ne‘mat va oilaning bebaho boyligi sifatida qaralgan. U nafaqat ulug‘ ne‘mat, balki kelajak davomchisi va hayot mazmuni hisoblangan. Shu sababli ko‘plab maqollarda farzand timsoli ulug‘lanib kelinadi.

“Yomon farzand ota-onani yerga qaratar, yaxshi farzand ota-onani elga oralatar” [2, 58] maqolini oladigan bo‘lsak, farzand tarbiyasi, mas’uliyatli, aqlli bo‘lib ulg‘aysa, ota-onasini xalq orasida ma’lum va mashhur qilishi, obro‘ olib kelishi, agar teskarisi bo‘lib,

farzandning xulqi va odobida salbiylik bo'lsa, qilayotgan ishlarida noto'g'ri yo'l tutsa, ota-onasini el orasida sharmanda qilishi, yuzini yerga qaratishi g'oyasi g'oyasi ilgari surilgan.

“Bolang yomon bo'lsa ham omon bo'lsin” [2, 272] maqolida ota-onaning farzandiga bo'lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Farzand qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ota-onasi uchun aziz. Xulqi yomon, kamchiliklari bo'lsa ham sog'-salomat va tirik ekanligini bilish-ular uchun har narsadan ustun.

“Odam mevasi – farzand” [2, 274] deganda, insonning eng katta boyligi va naslining davomchisi farzand ekani tushuniladi. Daraxt qanday meva bersa, inson ham o'zidan bu hayotda iz-farzand qoldiradi. U ota-ona mehnati, tarbiyasi va umidining natijasi ekanini bildiradi.

“Farzand baxti-ona taxti, farzand kamoli-ota jamoli” [2, 276] maqolida turli xil ma'no mujassam. Maqolning birinchi qismini ko'radigan bo'lsak, ona uchun eng ulug' baxt va “taxt” – farzandning baxtli bo'lishi ekanligi aytilgan. Farzand baxtli bo'lsagina, ona ham o'zini baxtiyor his etishi aks ettirilgan. Keyingi qismi esa asosan, otaga taalluqli. Odobli, tarbiyasi, har sohada mukammal bo'lib, kamolga yetgan farzand el orasida otasining obro'-e'tiborini oshiradi. Qisqa qilib aytganda, bolaning yaxshi fazilatlarini otaning yuzini yorug' qiladi.

“Farzand boqqan-ota, jonni qoqqan-ona” [2, 276] maqoli ota-onaning farzand uchun qiladigan mehnati va fidoyiligini tasvirlaydi. Ota bolasini boqish, tarbiyalash, ehtiyojlarini qondirish uchun tinmay mehnat qilsa, ona esa mehr bilan ardoqlab, asrab-avaylab, to'g'ri tarbiya berib, baxtli bo'lishi uchun hattoki jonini ham ayamaydigan darajada g'amxo'rlik qilishini bildiradi.

Xalqimizda yana bir o'zgacha maqol bor: “O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa-qilig'i” [2, 272]. O'zbeklar o'zi bolasevar xalq bo'lib, nechta farzandi bo'lsa ham har birini boshqacha yaxshi ko'radi. Qancha ko'p farzand bo'lmasin, har birining o'z o'rni, fe'l-atvori, qiliqlari va xarakteri boshqalarinikidan farq qiladi. Hattoki egizaklarda ham shunday. Kimdir muloyim, kimdir sho'x, yana kimdir jiddiy yoki mehnatsevar bo'lishi mumkin. Qaysidir oilada beshta qiz farzand dunyoga kelsa, qaysidir oilada beshta o'g'il bola tug'iladi. Ota-ona umuman ularni bir-biridan kam qilmay, bor mehrini berib o'stiradi. Ularning hayotida bolalarining o'ziga xos o'rni bo'ladi.

Oxunjon Safarov ta'kidlaganidek, o'zbek xalq maqollarida o'zbek xalqining dono siymosi, tarixiy taqdiri, mentaliteti, bag'rikengligi, saxovati, adolatpeshaligi, ilmga, mehnatga chanqoqligi, bunyodkorligi, mehmondo'stligi, oilaparvarligi, bolajonligi, bolaparvarligi, mehmonnavozligi, to'g'riligi, sevgi-sadoqati, jo'shqinligi, tiyrakligi, g'ayrat-shijoati, quvonchi, iztirobi, dushmanlariga qahr-g'azabi, betakror urf-odatlar va an'analari yaqqol aks etib turadi. Xalq shu maqollari orqali kelajak avlodiga o'z turmush tajribalaridan saboq beradi. [3, 293]

Yana bir maqolga nazar solsak, “Ko‘lning otini balig‘i chiqaradi” [5, 192] ushbu maqol majozan olingan bo‘lib, uning zamirida oilaning nomini shu oilaning bilimli, aqlli, zehqli farzandlari chiqaradi degan ma‘no yotibdi.

“Farzand-jonga payvand” [5, 355] Bu farzand ota-ona uchun aziz, qadrli va qalbiga yaqin ekanini anglatadi. Payvand daraxtga yangi novda ulanib, uni yanada mustahkam va serhosil qilgani kabi, farzand ham ota-onaning hayotiga mazmun, quvonch va davomiylik baxsh etadi.

“Davlatning boshi-farzand” [5, 355]. Bu maqol orqali inson uchun eng katta boylik, baxt va saodat farzand ekani anglashiladi. Ya‘ni uyda farzand bo‘lsa, oila fayzli, quvonchli va barakali bo‘ladi. Moddiy boylikdan ham avval farzand inson hayotining bezagi, nasl davomchisi va ota-onaning suyanchig‘i hisoblanadi. Shu sababli xalqimiz farzandni davlatning boshlanishi deb bilgan.

“O‘g‘il bilan qizing-misoli ikki ko‘zing” [5, 355]. Inson uchun uning ikki ko‘zi qay darajada muhim bo‘lsa, farzandlarning har ikkisi ham oilada shunday bebaho ne‘matlar bo‘lib, bu maqol farzandlar orasida farq qilmaslik, ularni teng sevish va qadrlash kerakligini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq maqollarida farzand obrazi chuqur ramziy ma‘no kasb etib, u nafaqat oilaviy qadriyat, balki ijtimoiy-ma‘naviy timsol sifatida ham namoyon bo‘ladi. Maqollar orqali farzandning jamiyatdagi o‘rni, uning kelajak va umid bilan bog‘liq tasavvurlari ifodalanadi. Tahlillar xalq og‘zaki ijodida farzand obrazining murakkab va ko‘p qatlamli semantikaga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu esa paremiologik birliklarning estetik va falsafiy ahamiyatini yanada chuqurroq ochib beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2007. – 66 б.
2. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.
3. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: Musiqqa, 2010. – 370 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 675 b.
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma‘nolar maxzani. Toshkent, 2001.